YASHIRIN IQTISODIYOT VA NORASMIY BANDLIK: HUQUQIY MEXANIZMLAR ORQALI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI

Mamajonov Muxammadsobir Kutfitdin o‘g‘li
Stajyor-o‘qituvchi Sarbon universiteti
assertiveboy17@icloud.com
+998932642497

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida yashirin iqtisodiyotning vujudga kelish mexanizmlari, uning milliy iqtisodiyot barqarorligiga salbiy ta’siri hamda uni qisqartirishning ustuvor yo‘nalishlari o‘rganilgan. Maqolada soliq yukini optimallashtirish, mehnat bozorini legallashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali “soya”dagi aylanmalarni rasmiy sektorga o‘tkazish choralari ilmiy asoslangan. Shuningdek, xalqaro tajriba tahlili asosida O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun xos bo‘lgan institutsional yechimlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: yashirin iqtisodiyot, soliq ma’murchiligi, raqamlashtirish, norasmiy bandlik, korrupsiya, institutsional islohotlar, fiskal siyosat.

Аннотация. В данном исследовании изучены механизмы возникновения теневой экономики, её отрицательное влияние на устойчивость национальной экономики, а также приоритетные направления её сокращения. В статье научно обоснованы меры по переводу оборотов «тени» в официальный сектор через оптимизацию налоговой нагрузки, легализацию рынка труда и внедрение цифровых технологий. Кроме того, на основе анализа международного опыта предложены институциональные решения, характерные для экономики Узбекистана.

Ключевые слова: теневая экономика, налоговое администрирование,

цифровизация, неформальная занятость, коррупция, институциональные реформы, фискальная политика.

Abstract. This research examines the mechanisms behind the emergence of the shadow economy, its negative impact on the stability of the national economy, and the priority directions for its reduction. The article scientifically substantiates measures to transfer “shadow” turnover into the formal sector through tax burden optimization, labor market legalization, and the implementation of digital technologies. In addition, based on an analysis of international experience, institutional solutions specific to the economy of Uzbekistan are proposed.

Keywords: shadow economy, tax administration, digitalization, informal employment, corruption, institutional reforms, fiscal policy.

Kirish: Yashirin iqtisodiyot — bu zamonaviy dunyo iqtisodiyotining eng murakkab va ko‘p qirrali muammolaridan biri bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy barqarorlikka ham daxldor hisoblanadi. Globalizatsiya sharoitida iqtisodiy munosabatlarning murakkablashi borishi natijasida “soya”dagi faoliyatning yangi shakllari vujudga kelishiga o‘z navabtida zamin yaratmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmon va qarorlarida yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning eng muhim sharti sifatida belgilangan. Hozirgi kunda mamlakatimizda yashirin iqtisodiyotning ulushi turli hisob-kitoblarga ko‘ra YaIMning 25 foizidan 45 foizigacha bo‘lgan ko‘rsatkichni tashkil etmoqda. Bu esa milliardlab so‘mlik mablag‘larning davlat budjetidan chetda qolishi, sog‘lom raqobat muhitining buzilishi va ijtimoiy adolatsizlikka sabab bo‘lmoqda. Maqolaning maqsadi — ushbu salbiy tendensiyani to‘xtatishning ilmiy va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishdir.

Iqtisodiy adabiyotlarda yashirin iqtisodiyotga nisbatan “soya”, “norasmiy”, “parallel”

yoki “noqonuniy” iqtisodiyot kabi terminlar qo‘llaniladi. **Fridrix Shnayder** kabi yirik tadqiqotchilar buni davlat organlari tomonidan ro‘yxatga olinmagan, soliqqa tortilmaydigan, lekin real qiymat yaratadigan faoliyat deb ta’riflaydi. Yashirin iqtisodiyotning mavjudligini, uning ko‘lamini aniqlash uchun quyidagi jihatlarga e’tibor berish mumkin.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri usullar orqali, misol uchn Soliq tekshiruvlari va ijtimoiy so‘rovnomalar natijalari. Bu usul aniq bo‘lsa-da, katta xarajat va vaqt talab qiladi;

Bilvosita usullar: Bu usullar makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi nomutanosiblikka tayanadi:

Elektr energiyasi iste’moli usuli: agar elektr energiyasi iste’moli rasmiy YaIM o‘sish sur’atidan tezroq o‘ssa, bu yashirin ishlab chiqarish quvvatlari borligini anglatadi.

Pul agregatlari (Kagan) usuli: Yashirin iqtisodiyotda asosiy to‘lov vositasi naqd pul bo‘lganligi sababli, naqd pul massasining umumiy pul massasidagi (M2) ulushi tahlil qilinadi.

MIMIC modeli: Ushbu model yordamida yashirin iqtisodiyotning sabablari (soliq yuki, byurokratiya) va natijalari (YaIM, mehnat bozori) o‘rtasidagi korrelyatsiya aniqlanadi.

O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotni keltirib chiquvchi omillar tahlili. O‘zbekiston sharoitida yashirin sektorning barqarorligini quyidagi institutsional omillar bilan izohlash mumkin:

Soliq yuki va ma’murchiligi murakkabligi. Soliq stavkalari pasaytirilganiga qaramay, soliq hisobotlarining murakkabligi va ayrim turdagi soliqlar bo‘yicha imtiyozlarning mavjudligi tadbirkorlar o‘rtasida “soya”ga o‘tish motivatsiyasini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, QQS (qo‘shilgan qiymat solig‘i) zanjirining uzilishi yirik va kichik biznes o‘rtasidagi hamkorlikni yashirin shaklga o‘tkazadi.

Mehnat bozoridagi norasmiy munosabatlar. Hozirgi kunda O‘zbekistonda band aholining sezilarli qismi mehnat shartnomasiz faoliyat yuritadi. Bu asosan qurilish, savdo va umumiy ovqatlanish sohalariga xosdir. Ish beruvchilar uchun ijtimoiy soliq va daromad solig‘idan qochish asosiy maqsad bo‘lib qolmoqda.

Naqd pul aylanmasining ustunligi. Garchi bank kartalari keng joriy etilgan bo‘lsa-da, ulgurji bozorlarda va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosida naqd pul yetakchi o‘rin tutadi. Naqd pul — yashirin iqtisodiyotning “qoni” hisoblanadi. Chunki naqd pul savdolari orqali qilngan savdolar doim ham nazorat kassa apratlari orqali kirim qilinavermaydi.

Sohaviy tahlil: qurilish va xizmat ko‘rsatish. Qurilish sektori: Yashirin mehnat va materiallar aylanmasi. Qurilish sanoati O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyot ulushi eng yuqori sohalardan biri bo‘lib, bu yerda asosan “naqd pulda ish haqi to‘lash” tizimi mavjud. Shuningdek, qurilish materiallarining sezilarli qismi (sement, g‘isht, metall) rasmiy hujjatlarsiz, naqd pulga realizatsiya qilinadi.

Umumiy ovqatlanish va savdo. Ushbu sohada onlayn cheklarini bermaslik yoki tushumni qisman aks ettirish orqali daromadni yashirish keng tarqalgan. Bu esa davlat budjetiga tushishi kerak bo‘lgan trillionlab so‘mlarning xususiy cho‘ntaklarda qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Raqamlashtirish — yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashning texnologik asosi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish yashirin sektorga qarshi kurashning eng shaffof usulidir. E-aktiv va E-faktura: Ushbu tizimlar mahsulotning ishlab chiqaruvchidan to oxirgi iste’molchigacha bo‘lgan harakatini elektron shaklda kuzatish imkonini beradi. Markirovkalash: Alkogol, tamaki va dori-darmon kabi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovka qilish kontrabanda va qalbakilashtirishga chek qo‘yadi.

“Soliq” mobil ilovasi va keshbek: Iste’molchilarni chek talab qilishga rag‘batlantirish orqali jamoatchilik nazorati o‘rnatildi. Ushbu tizim orqali yillik tushumlar o‘sishi 15-20% ga oshgani kuzatildi.

Xalqaro tajriba va undan foydalanish imkoniyatlari. ***Gruziya tajribasi:*** Korrupsiyani keskin qisqartirish va litsenziyalash jarayonlarini 90% ga soddalashtirish orqali yashirin iqtisodiyot ulushi 10 yil ichida ikki baravarga qisqardi.

Janubiy Koreya tajribasi: Naqd pulsiz to‘lovlarni rag‘batlantirish uchun aholiga soliq chegirmalari berish tizimi orqali chakana savdo to‘liq nazoratga olindi.

Estoniya tajribasi: "E-Residency" va to‘liq raqamli soliq deklaratsiyasi tizimi orqali soliq to‘lash jarayoni 3 daqiqadan oshmaydigan darajaga keltirildi.

Yashirin iqtisodiyotda o‘zining sezilarli ta’sirig ega bo‘lgan norasmiy bandlikni qisqartirish bo‘yicha bir nechta omillarni keltirib o‘tish mumkin. Hozirda O‘zbekistonda xususiy sektorda, o‘quv markazlarda, savdo do‘konlarida, ovqatlanish va xizmat ko‘rsatish shahobchalarida, qurilish firmalarida norasmiy bandlik ulushi ayniqsa juda yuqori. O‘quv markazlari misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, u yerda ham norasmiy bandlik ham ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro yozma shartnomalarsiz xizmat ko‘rsatiladi. Buning natijasida daromad soliqdan yashirilishi uchun zamin yaratiladi. Qonunchilikka e’tibor beradigan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagi PF-6044-son Farmoniga ko‘ra, maktabdan tashqari ta’lim faoliyatini, ya’ni o‘quv markazlarini litsenziyalash maktabdan tashqari ta’lim faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabarnoma bilan almashtirilgan. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-fevraldagi 88-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga ko‘ra, o‘quv markazlar davlat ro‘yxatidan o‘tib faoliyatini boshlaganlik to‘g‘risidagi xabarnomani olish uchun arizaga pedagog kadrlar (shu jumladan xorijiy o‘qituvchilar) haqida ma’lumot taqdim qilish belgilangan. Xabarnoma olingandan keyin, o‘quv markazlarida mehnat faoliyatini yuritadigan o‘qituvchilar rasmiy ro‘yxatga olinmasdan ishlashi keng tarqalgan. Buni isbotlash esa ancha qiyin jarayon. Bunda norasmiy bandlik va o‘quv markazlarda ta’lim oluvchi o‘quvchilardan tushgan pullarni yashirishning oldini olish uchun quyidagi yechimlardan foydalanish mumkin. **Birinchidan,** xabarnoma olishda ko‘rsatilgan va va keyinchalik faoliyat yuritayotgan

pedagog xodimlar ro‘yxati o‘zaro xabarnomani taqdim qilgan va soliq organi hamkorligida muntazam monitoring qilib borilishi lozim. Bundan xodimlar sonini yashirish bo‘yicha huquqbuzarliklar barvaqt aniqlanib noqonuniy holatlar bartaraf etilar edi. **Ikkinchidan,** hozirda o‘qyv markazlarning ko‘pchiligi o‘quvchilar davomatini nazorat qilishda raqamli platformalardan foydalanadi. Xabarnoma berishda shu platformalarni soliq organlariga integratsiya qilish talabini ham kiritish lozim. Bu o‘z navbatida o‘quv markazlariga kirim bo‘layotgan daromani yashirishning oldini olish va xodimlarning soni to‘g‘risida shaffof ma’lum olib turish imkonini bergan bo‘lar edi.**Uchinchidan,** yuridik shaxs tashkil etgan holda o‘quv markaz faoliyatini yuritadigan markazlar uchun barcha xodimlari haqida rasmiy veb saytlarida ma’lumot berilishi talab qilish lozim.

Xulosa

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish — bu faqatgina jazo choralari yoki qat’iy nazorat bilan erishiladigan maqsad emas. Bu kompleks jarayon bo‘lib, unda davlat va biznes o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash, tadbirkorlar uchun soliq to‘lashni iqtisodiy jihatdan manfaatli qilish va jarayonlarni to‘liq raqamlashtirish talab etiladi. Ushbu maqolada ilgari surilgan takliflarning hayotga tatbiq etilishi YaIM o‘sish sur’atlarini kamida 2-3 foizga jadallashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. - Toshkent, 2020.

2. Schneider F., Buehn A., Montenegro C.E. Shadow Economies All over the World. - World Bank, 2010.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi; “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi; Jahon banki (2022). Informal Economy Diagnostics: Uzbekistan.

4. “The Shadow Economy” F R I E D R I C H S C H N E I D E R & COLIN C. WILLIAMS 2013.